

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

TURSUNOV ANVAR ISMOILOVICH

**G'O'ZANING AYRIM FIZIOLOGIK VA BIOKIMYOVIY
XUSUSIYATLARIGA (B, Zn) MIKROELEMENTLARNING TA'SIRI**

03.00.07 – O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tursunov Anvar Ismoilovich

G‘o‘zaning ayrim fiziologik va biokimyoviy xususiyatlariga mikroelementlarning (B, Zn) ta‘siri 3

Турсунов Анвар Исмоилович

Влияние микроэлементов (B, Zn) на некоторые физиолого-биохимические свойства хлопчатника 21

Tursunov Anvar Ismoilovich

The influence of microelements (B, Zn) on some physiological and biochemical properties of cotton 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

TURSUNOV ANVAR ISMOILOVICH

**G'O'ZANING AYRIM FIZIOLOGIK VA BIOKIMYOVIY
XUSUSIYATLARIGA (B, Zn) MIKROELEMENTLARNING TA'SIRI**

03.00.07 – O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/B926 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	O'roqov Sirojiddin Xudayberdiyevich biologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponenlar:	Xolliyev Askar Ergashovich biologiya fanlari doktori, professor Abdurahmonov Xusniddin Eshmamatovich qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «26» dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (126 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «20» noyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil «20» noyabr № 15 raqamli reyestr bayonnomasi)



T.F.Rajabov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, b.f.d.

M.S.Kuziyev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
b.f.f.d. (PhD); dotsent

X.Q.Haydarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda g‘o‘za oziq-ovqat ekini sifatida ekiladigan madaniy o‘simliklardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab kundan kunga oshmoqda, shu bilan bir qatorda, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu o‘rinda o‘simliklarda kuzatilayotgan mikroelementlar yetishmovchiligi g‘o‘za o‘simligiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Natijada g‘o‘zaning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, hosil va uning sifati pasaymoqda. Shundan kelib chiqqan holda g‘o‘zada mikroelementlar yetishmovchiligi ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish hamda yo‘qotilayotgan hosilni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, mikroelementlarning fiziologik jihatlarini baholash va asoslashga katta e‘tibor berilishi bois bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar eng muhim vazifalar sifatida qaralmoqda.

Jahonda g‘o‘za o‘simligida kuzatilayotgan mikroelementlar yetishmovchiligi hamda hosildorligi, biokimyoviy tarkibiga ta‘sirini o‘rganish va uni ochib berish dolzarb nazariy-ilmiy muammolardan biri bo‘lib, zamon talabiga mos an‘anaviy biologik usullarni fiziologik va biokimyoviy tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada g‘o‘za o‘simligiga mikroelementlar yetishmovchiligini aniqlash va to‘ldirish, fiziologik va biokimyoviy uyg‘unligi asosida baholash, turli stress ta‘sirlarga fiziologik jihatdan chidamliligini aniqlash asosida nano mikroo‘g‘itlardan foydalanish, uning o‘simlikka fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, uni qo‘llash me‘yorlarini aniqlash, qo‘llash mexanizmlarini va fiziologik asoslarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ko‘plab sohalar qatori qishloq xo‘jaligida g‘o‘za yetishtirish, hosildorligi yuqori, raqobatbardosh, tola sifati dunyo bozori talablariga javob beradigan va moy miqdorini oshirish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, g‘o‘zaning fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini rivojlantirish, mikroelementlar va nanoo‘g‘itlarni qo‘llash borasida muhim natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “g‘o‘za maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib fermer xo‘jaliklari yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish hamda fiziologik jihatlarini baholash va asoslashga katta e‘tibor berilishi bois bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim vazifalar sifatida qaralmoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar davomida g‘o‘zaning hosildorligi, tola sifati va moy miqdori yuqori bo‘lishi borasida muayyan yutuqlarga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi” to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘o‘za navlarining hosildorligiga mikroelementlarning ta‘siri bo‘yicha xorijiy olimlar Abdel-Malak K.I., Radwan F.E., & Baslious, S.I. (1997), Abdel-Al (1998), Ahmad, Z., Gill M.A., Qureshi R.H., Aslam M., Iqbal, J., & Nawas, S. (2000), Panasin V.I., Perelomov L.V., Pinskiy D.L., Pokrovskaya M.N., (2003) Eptein E., Bloom A.J., (2006) Ahmad S, Akhtar L.H., Ahmad S., Iqbal N., Nasim M., (2009) Ali L., Ali M., Mohyuddin Q., (2011), Araújo E.O., Santos E.F., Camacho M.A., (2013) Ahmad I., Asif M., Amjad A., Ahmad S., (2011) Piroxunova F.N., (2013) Aibara I., Miva K., (2014) Constable G.A., Bange M.P., (2015) Kordeiro L.F., (2022) kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Tuproqlarda mikroelementlar tanqisligi, shuningdek ortiqcha bo‘lishi o‘simlik, hayvon va insonlarda qator kasalliklarning kelib chiqishi Peyve Ya.V., Shkolnik M.Ya., Kovalskiy V.V., Kovda V.A., Yakushevskaya I.V., Tyuryukanova A.N., Kruglova E.K., Alieva M.M., Kobzeva G.I., Popova T.P., Isaev B.M., Rish M.A., Sattarov J.S., Mirzajonov Q., G‘ofurov A., Karimberdiyeva A. va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Shu boisdan tuproq va o‘simlik tarkibidagi mikroelementlarni o‘rganish hamda mikroo‘g‘itlarni qo‘llashning nazariy asoslarini ishlab chiqish – yuqori va sifatli, raqobatbardosh hosil olishning asosiy negizi bo‘lib hisoblanadi.

Peyve Ya.V., Kruglova E.K., Alieva M.M., Kobzeva G.I., Popova T.P., Xodjaev D.X, Yagodin B.A., Isayev B., Rafiqova G., Sanaqulov A.L. va boshqalarning tadqiqotlarida asosiy e‘tibor mikroelementlarning oksidlanish-qaytarilish jarayoniga ta‘siri, oziq moddalar metabolizmi, g‘o‘zaning noqulay sharoitlarga chidamliligini oshirishdagi roli va boshqalar yoritilgan.

Ayni vaqtda O‘zbekiston tuproqlarida mikroelementlar miqdori, ayniqsa, o‘zlashtiriluvchan shakllari bo‘yicha ma‘lumotlar kam uchraydi, keyingi yillardagi dehqonchilik tizimi, tuproq gumusli holati va sho‘rlanishning o‘zgarishlari hisobga olinganda, bu borada ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligi ayon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan manbalardagi ma‘lumotlar ishning dolzarbligini asoslaydi, biroq aynan g‘o‘za navlarining fiziologik va biokimyoviy xususiyatlariga yangi xitozan va nanozarra tarkibli mikroelementlar ta‘sirida sodir bo‘ladigan fiziologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash shu orqali ularning chidamlilik xususiyatlarini tadqiq qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti biologiya fakulteti O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida bosh mavzusi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilayotgan, introduksiyalanayotgan hamda yaylov o'simliklarining fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari", "O'simliklarning hosildorligiga mikroelementlarni ta'sirini aniqlash" №42, "G'o'zaning hosildorligiga mikroelementlarni ta'sirini aniqlash" №43 2021-2022) xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyati sharoitida g'o'za navlarining fiziologik va biokimyoviy xususiyatlariga hamda hosildorligiga mikroelementlarning ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

g'o'za navlarining o'sishi va rivojlanishiga B, Zn mikroelementlari hamda nanozarra tarkibli mikroelementlarning ta'sirini aniqlash.

B, Zn va nanozarra tarkibli mikroelementlarning g'o'za navlari fotosintetik faolligi, barg sathi, quruq moddaning hosil bo'lishi, barglardagi pigmentlar miqdori va fotosintezning sof mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash;

g'o'za navlarining suv almashinuv xususiyatlari, barglardagi umumiy suv miqdori, suv saqlash xususiyatlari va suv tanqisligiga mikroelementlarning ta'sirini aniqlash;

g'o'za navlari chigitining biokimyoviy tarkibi, hosildorligiga bor, ruh hamda nanozarra tarkibli mikroelementlarning ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida g'o'zaning mahalliy "Omad" va "Sulton" navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Samarqand viloyati sharoitida g'o'za navlarining fiziologik-biokimyoviy xususiyatlariga mikroelementlar va nanozarra tarkibli mikroelementlar ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada o'simliklar fiziologiyasi va biokimyosining klassik va zamonaviy usullari hamda statistik tahlillarning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Omad" va "Sulton" navlarining fotosintetik ko'rsatkichlari bor, ruh hamda nanozarra tarkibli mikroelementlar ta'sirida o'zgarishi ilmiy asoslangan;

B, Zn hamda nanozarra tarkibli mikroelementlarning g'o'za barglari tarkibidagi xlorofill pigmentlari, karotinoidlarning ortib borishi dinamikasiga ta'siri isbotlangan;

g'o'za navlarining suv almashinuv xususiyatlari mikroelementlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq ravishda o'zgarishi isbotlangan;

Samarqand viloyati sharoitida g'o'za navlariga mikroelementlarni qo'llash me'yori ta'sirida biologik, fiziologik xususiyatlari asosida hosildorlikni oshirish, tola sifatini yaxshilash yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati sharoitida mikroelementlar yetishmovchiligi mavjud hududlarga navlarning chidamlilik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga

mikroelementlar berish miqdori bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi;

g'oz navlarining fiziologik ko'rsatkichlari, fotosintez so'f mahsuldorligi, quruq modda miqdori, suv saqlash xususiyatlari asosida yuqori hosil shakllanishini ta'minlaydigan mikroelement me'yorlari aniqlangan;

Samarqand viloyati sharoitida g'oz navlarining hosildorligi, hosil sifatini oshirishda chigitlarga ekishdan oldin hamda o'simliklarning rivojlanish fazalarida B, Zn mikroelementlarni qo'llash me'yorlari hamda ishlov berish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan tadqiqot usullari, nazariy ma'lumotlarning olingan tajriba natijalari bilan mos kelishi, laboratoriya va dala tajribalaridagi biokimyoviy va fiziologik ko'rsatkichlarni aniqlash mos uslublar bilan amalga oshirilganligi, tajriba ma'lumotlarining dispersion statistik tahlil qilinganligi, ilmiy tadqiqot natijalarning respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamasi, yetakchi mahalliy ilmiy jurnallarda va xorijiy jurnallarda chop etilganligi, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g'oz navlarining fiziologik, biokimyoviy xususiyatlari, barglardagi umumiy suv miqdori, barglarning suv saqlash xususiyati, fotosintetik faolligi, barg sathi, barglardagi xlorofill, karotinoid miqdori, quruq massa, mikroelementlarning o'simlik hosildorligi va moy miqdoriga ta'siri aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati g'oz fiziologik ko'rsatkichlari, fotosintetik faolligi, barg sathi, barglardagi xlorofill, karotinoid miqdori, quruq massa, barglardagi umumiy suv miqdori, barglarning suv saqlash xususiyatiga mikroelementlarning ta'siri hamda makroelementlar hisobiga optimallashtirish bo'yicha olingan ilmiy ma'lumotlar g'oz ekinini yetishtirish agrotexnologiyalari, hosildorligi va hosil sifatini yaxshilashga qaratilgan agrotexnologik tadbirlarni to'g'ri belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'ozning ayrim fiziologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga mikroelementlar (B, Zn) ta'siri bo'yicha olingan natijalar asosida:

“Omad” va “Sulton” navlaridagi fiziologik jarayonlarini jadallashtirish uchun mikroelementlarni chinbarg, shonalash va gullash fazasida qo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi “Qo'qoni paxta g'alla dalasi”, “Naxangov Sherbek Fayzli dalalari”, “Qorapolvon oltin dalasi”, “Karvon yashil maysasi” fermer xo'jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 27-noyabrdagi 07/21-08/716-son ma'lumotnomasi). Natijada, g'oz navlarida 40,6-45,5 sentnergacha hosildorlikka erishish imkonini bergan;

Mikroelementlar yetishmovchiligi kuzatilayotgan maydonlarda mikroelementlarni qo'llash rejimi hamda me'yorlari ishlab chiqilib, tuproq tarkibidagi mikroelementlar miqdoridan kelib chiqqan holda mikroo'g'itlar bilan o'g'itlash me'yorlari Samarqand viloyati Payariq tumanidagi “Asadbek Nurli

dalasi” fermer xo‘jaligida 16 gektar, “Shoxrux Sulton dalasi” fermer xo‘jaligida 26 gektar, Oqdaryo tumanidagi “Oqdaryo Xojobod” fermer xo‘jaligida 12 gektar, jami 54 gektar maydonlarga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 27-nyabrdagi 07/21-08/716-son ma’lumotnomasi). Natijada, tuproqdagi mikroelementlar miqdori va g‘o‘zaning fiziologik holati yaxshilanib, g‘o‘za ekinidan fosforli va kaliyli o‘g‘itlar fonida azotli o‘g‘itlarni qo‘llash hamda mikroelementlarni hisobiga gektaridan 41,7-42,3 sentnergacha hosil olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilishi va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jahon paxtachilik tarixi, g‘o‘zaga mikroelementlar ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy ishlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika, MDH va xorijiy davlatlar olimlarining o‘tkazilgan ilmiy izlanishlari, xususan, g‘o‘za o‘simligini jahonda va O‘zbekistonda rivojlanish tarixi fiziologik, biokimyoviy xususiyatlari va g‘o‘za o‘simligiga mikroelementlarning ta’siri bo‘yicha olimlarning ilmiy izlanishlari tahlillari sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish sharoitlari, obyektlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot sharoitlari, obyektlari, tajribalarni o‘tkazish joyi, tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘llanilgan uslublar bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“G‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi, fotosintetik faolligi”** deb nomlangan uchinchi bobida mikroelementlarning urug‘larning laboratoriya va dala unuvchanligiga, g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanishiga, biometrik ko‘rsatkichlariga, plastid pigmentlar miqdoriga, barg sathining shakllanishi va

indeksiga, o‘simliklarda quruq modda hosil bo‘lish dinamikasiga, fotosintez sof mahsuldorligiga ta‘sirini baholash bo‘yicha olingan ma‘lumotlar hamda ularning tahlili va bobga doir xulosalar keltirilgan.




1-rasm. “Omad” va “Sulton” navlari chigitlarining unuvchanligi, %.

Olib borilgan tajriba ma‘lumotlari shuni ko‘rsatdiki, “Omad” navining chigit unish quvvati nazorat variantida 77,4% ni tashkil etdi, uzxitan bilan ishlov berilgan variantimizda esa unish quvvati 85,6% ni tashkil etgan bo‘lsa, bor va ruh mikroelementi bilan ishlov berilgan variantlarda esa bu ko‘rsatkich 82,4 va 79,7% ni tashkil etganligi aniqlandi. Chigitlarimizni unuvchanligi nazorat variantimizda 95,3% ni, uzxitan bilan kimyoviy ishlov berilgan variantimizda esa unuvchanlik 100% ni tashkil etdi. Xuddi shunday bor va ruh mikroelementi bilan ishlov berilgan variantlarda esa chigitlarning unuvchanligi 97,8 va 95,4% ga teng bo‘ldi.

“Sulton” navida esa chigitlarimizning unish quvvati nazorat variantida 74,7, uzxitan bilan ishlov berilgan variantimizda esa 82,9% ekanligi aniqlandi.


Bor va ruh mikroelementlari bilan ishlov berilgan variantlarda esa chigitlarning unish quvvati biroz pasayganligi kuzatilib 80,4 va 78,6% ni tashkil etdi. Unuvchanligi esa nazoratda 92,3% uzxitan bilan ishlov berilganda 100% ni tashkil etdi. Qolgan ikki variantda esa 98,2 va 94,8% ga teng bo‘lishi aniqlandi (1-rasm).

Chigitlarning dala unuvchanligi “Omad” navining nazorat variantida 77,2% ni, “Sulton” navida esa 74% ni tashkil etgan bo‘lsa, uzxitan bilan ishlov berilgan variantimizda esa unuvchanlik navlar kesimida 95,2; 94,1% ni tashkil etdi. Xuddi shunday bor va ruh mikroelementi bilan ishlov berilgan variantlarda chigitlarimizning dala unuvchanligi 92,4% va 90,8% g, Sulton navida esa 91,8; 89,6% ga teng ekanligi ma‘lum bo‘ldi.



2-rasm. G‘o‘za navlari hosildorligi, s/ga.

Hosildorlikni aniqlaganimizda esa “Omad” navining nazorat variantida hosildorlik 18,6 sentnarni tashkil qilgan bo‘lsa, uzxitan, bor va rux bilan ishlov berilgan variantlarimizda esa hosildorlik 31,7; 39,1; 35,4; 33,1 sentnarni tashkil etdi va nazorat variantiga nisbatan 20,5; 16,8; 14,5 sentner ziyod hosil olindi. “Sulton” navi chigitlarining nazorat va ishlov berilgan variantlarimizning hosildorligini aniqlaganimizda nazorat variantida hosildorlik 16,3 sentnerga teng bo‘lgan bo‘lsa, ishlov berilgan tajriba variantlarida hosildorlik 31,1; 37,2; 34,4; 31,9 sentnerga teng bo‘ldi. Olingan natijalar 2-rasmda berilgan.




3-rasm. “Omad” navining o‘shish dinamikasiga mikroelementlarning ta’siri.

“Omad” va “Sulton” navlarining o‘shish dinamikasiga mikroelementlarning ta’siri o‘rganilganda azorli o‘g‘itlar me’yori ortib borishi bilan asosiy poyaning balandligi ortib bordi. Masalan “Omad” navining nazorat variantida 15-mayda asosiy poyaning balandligi 7,1 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, “Sulton” navida esa 7 sm ni tashkil etdi. Tajriba variantlarda esa 7,3 sm dan 7,9 sm gacha bo‘lishi kuzatildi,

“Sulton” navida esa 7,2 sm dan 7,9 sm gacha bo‘lishi aniqlandi. Pishish fazasiga kelib “Omad” navida asosiy poyaning balandligi N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+kuprumxit+nanoserebro qo‘llanilgan variantda 95,1 sm gacha o‘sganligi kuzatilgan bo‘lsa, “Sulton” navida ham eng yuqori ko‘rsatkich N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+kuprumxit+nanoserebro qo‘llanilgan variantda kuzatilib o‘simlik bo‘yi 98,1 sm gacha o‘sganligi ma‘lum bo‘ldi. Qolgan variantlar esa oraliq o‘rinlarni egalladi (3-rasm).

Vegetatsiya davriga mikroelementlar ta‘sirini aniqlaganimizda, nazorat variantimizdagi o‘simliklarning vegetatsiya davri “Omad” navida 121 kun, “Sulton” navida esa 122 kuni tashkil etgan bo‘lsa, N₂₀₀ kg/ga qo‘llanilgan variantlarda “Omad” navida 103 kundan 114 kungachani tashkil etgan bo‘lsa “Sulton” navida esa 107 kundan 118 kungachani tashkil etdi. N₂₅₀ kg/ga qo‘llanilgan variantlarda “Omad” navida 108 kundan 112 kungachani tashkil etgan bo‘lsa “Sulton” navida esa 111 kundan 117 kungacha ekanligi kuzatildi.


G‘o‘za o‘simligi barglari tarkibidagi xlorofill miqdori mikroelementlar ta‘sirida o‘zgarishi navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda har xil bo‘lishi qayd etildi. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, mikroelementlarning yetishmasligi g‘o‘za navlarining barglaridagi pigmentlarining miqdoriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. “Omad” navida chinbarg fazasida nazorat variantida xlorofill “a” ning umumiy miqdori nazoratda 1,87 mg/g ga teng bo‘lib, qolgan



4-rasm. “Omad” navining plastid pigmentlar miqdorining o‘zgarishiga mikroelementlar ta‘siri. (2020-2022 yy)

tajriba variantlarida 2,32 mg/g dan 2,45 mg/g gacha kuzatilgan bo‘lsa, “Sulton” navida esa bu ko‘rsatkich nazorat variantida 1,75 mg/g ga teng bo‘lgan bo‘lsa, qolgan variantlarda esa 2,18 mg/g dan 2,29 mg/g gacha ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Xlorofill “b” ning miqdori esa nazorat variantimizda 1,79 mg/g ga teng bo‘lgan bo‘lsa, qolgan variantlarda esa 2,31; 2,37; 2,35; 2,3; 2,41; 2,36, 2,38 mg/g bo‘lishi kuzatildi. “Sulton” navida xlorofil “b” ning nazorat variantida 1,69 mg/g ga teng bo‘lgan bo‘lsa, qolgan variantlarda esa bu ko‘rsatkich 2,11 mg/g dan 2,16 mg/g gacha ekanligi aniqlandi. Karotinoidlar miqdorini aniqlaganimizda tajriba

variantimizda 2,73 mg/g ni tashkil etgan bo'lsa, qolgan tajriba variantlarda esa 3,14 mg/g dan 3,23 mg/g gacha bo'lishi ma'lum bo'ldi. N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ kg/ga me'yorida qo'llanilganda o'simliklarimizda plastid pigmentlar miqdorini ham ortishi kuzatilib xlorofill "a"ning miqdori 2,56 mg/g dan 2,67 mg/g gacha, xlorofil "b" 2,4 mg/g dan 2,49 mg/g gacha, karationoidlar 3,2 mg/g dan 3,35 mg/g gacha ortganligi aniqlandi. Sulton navida esa bu ko'rsatkichda biroz kamayish kuzatilib nazorat variantida 2,69 mg/g ga teng bo'lgan bo'lsa tajriba variantlarda esa 3,11 mg/g dan 3,2 mg/g gacha ko'tarilib bordi. O'g'itlar me'yorining ortib borishi bilan karotinooidlar miqdori ham ortib bordi. Mineral o'g'itlar N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ kg/ga me'yorida qo'llanilgan o'simliklarimizda karotinooidlar miqdori 3,32 mg/g dan 3,41 mg/g gachani tashkil etdi.



5-rasm. "Sulton" navining plastid pigmentlar miqdorining o'zgarishiga mikroelementlar ta'siri. (2020-2022 yy)


Umuman olganda, o'simliklarimiz barglaridagi plastid pigmentlar miqdori va karotinooidlar hosil bo'lish dinamikasi o'simligimizning butun vegetatsiyasi davomida o'zgarib bordi. Chinbarglik va shonalash fazasida yuqori pigmentlar ko'rsatkichiga ega bo'lgan bo'lsa gullash fazasiga kelib bu ko'rsatkich biroz pasayganligi kuzatildi. Eng yuqori pigmentlar miqdori va karotinooidlar hosil bo'lish dinamikasi pishish fazasiga kelib yuqori bo'lishi kuzatildi. Barglar yuzasining kengayishi tashqi omillar va, xususan, mikroelementlar bilan ta'minlanganlik darajalariga bog'liq holda navlar kesimida har xil bo'ldi. G'o'za bargi yuzasining kengayishini kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, mikroelementlar bilan ta'minlash barg yuzasining o'sish tezligiga sezilarli ta'sir qildi.

Bizning tadqiqotlarimizda ko'ra, "Omad" navining chinbarglik fazasida nazorat variantidagi o'simliklarimiz barg sathi 47,8 sm²/tup ekanligi aniqlandi. Qolgan variantlarda barg sathi 50,6 sm²/tupdan 66,7 sm²/tupgacha ekanligi aniqlandi. N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ qo'llanilgan variantlarda barg sathi biroz bo'lsada ziyod bo'lishi kuzatilib o'simliklarimizda barg sathi mos ravishda 56,3; 60,9; 60,3; 57,2; 71,2; 57,9 va 66,2 sm²/tup ekanligi aniqlandi va 8,5 sm sm²/tupdan 23,4 sm²/tupgacha ziyod barg sathi hosil qilganligi ma'lum bo'ldi. "Sulton" navining

barg sathiga ma'danli o'g'itlar ta'sirini tahlil qilganimizda, chinbarglik fazasida nazorat variantidagi o'simliklarimiz barg sathi 43,4 sm²/tup ekanligi aniqlandi. N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ + mikroelementlar qo'llanilgan varianlarimizda barg sathi mos holda 44,8; 48,4; 57,9; 55,7; 62,0; 54,8; va 52,1 sm²/tupga teng ekanligi aniqlandi. N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ kg/ga qo'llanilgan variantlarda esa barg sathi biroz bo'lsada ziyod bo'lishi kuzatilib o'simliklarimizda barg sathi mos ravishda 53,2; 58,5; 47,6; 58,5; 68,4; 59,6 va 66,2 sm²/tup ekanligi aniqlandi. Chinbarg davrida o'simliklarimiz barg sathi unchalik sezilarli darajada oshmadi va variantlar orasida ham katta farq kuzatilmadi.

Pishish fazasiga kelib o'simliklarimiz eng katta barg sathga ega bo'lganligi kuzatildi. Nazorat variantidagi o'simliklarimiz o'rtacha barg sathi 4497 sm²/tupga, "Sulton" navida esa 4112,1 teng ekanligi aniqlangan bo'lsa, tajriba variantlarda esa 4620,1 sm²/tupdan 5121,1 sm²/tupgacha barg sathiga, "Sulton" navi esa 4358,5 sm²/tupdan 4867,7 sm²/tupgacha barg sathiga ega bo'ldi.

O'simliklarda quruq massaning ko'p bo'lishi uning vegetativ va generativ organlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi. O'simliklarning o'sib rivojlanishi uchun qo'llaniladigan mikro o'g'itlar muhim hisoblanadi. Mikro o'g'itlar optimal me'yorda qo'llanilishi o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu navlar quruq massasining yig'ish jadalligi fazalar kesimida o'rganildi. Eng jadal quruq massa to'plash ko'rsatkichi gullash va pishish fazalariga kelib kuzatildi. "Omad" navining nazorat variantida 113 g/tup, qolgan tajriba variantlarda 131,12 g/tupdan mos ravishda 163,8 g/tupgacha bo'lishi, "Sulton" navida esa quruq massa miqdori nazorat variantida 126,11 hamda tajriba variantlarda esa bu ko'rsatkich 142,33 g/tupdan 155,29 g/tupga yetdi (6-rasm).



6-rasm. G'o'za navlarining rivojlanish fazalarida quruq massa to'plash dinamikasi, g/tup (2020-2022 yy).

Fotosintez sof mahsuldorligi shonalash va gullash fazalarida yuqori bo'lib, pishish fazasiga kelib kamayishi kuzatildi. Chinbarglik fazasida fotosintez sof

mahsuldorligi “Omad” navining nazorat variantida 3,9 g/m².sutkaga teng ekanligi aniqlandi. Qolgan tajriba variantlarda esa 4,2 g/m².sutkadan 5,8 g/m².sutkaga teng bo‘ldi. Sul-ton navida esa nazorat variantida 3,7 g/m².sutka, tajriba variantlarda esa 4,6 g/m².sutkadan 5,4 g/m².sutkaga teng bo‘lishi kuzatildi. Shonalash fazasiga kelib fotosintez sof mahsuldorligi keskin oshganligi ma’lum bo‘ldi. Gullash fazasida o‘simliklarning sof mahsuldorligi barcha variantlarda biroz ko‘tarilish kuzatildi. Omad navining nazorat variantidagi o‘simliklarning sof mahsuldorligi 8,0 g/m².sutkaga teng ekanligi aniqlandi. “Sulton” navining nazorat variantidagi o‘simliklarimizda 7,6 g/m².sutkani tashkil etdi. Pishish fazasida o‘simliklarning fotosintez sof mahsuldorligi kamayganligi va nazorat variantidagi o‘simliklarning bu ko‘rsatkich Omad navida 6,6 g/m².sutkaga teng ekanligi va “Sulton” navining nazorat variantidagi o‘simliklarning fotosintez sof mahsuldorligi bu fazada 6,2 g/m².sutkaga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Dissertatsiyaning “G‘o‘zaning suv almashinuvi xususiyatlari, hosildorligi va biokimyoviy tarkibi” deb nomlangan to‘rtinchi bobida “Omad” va “Sulton” g‘o‘za navlarining suv almashinuv xususiyatlari, hosildorligi, biokimyoviy tarkibi mikroelementlarning ta’sirini baholash bo‘yicha olingan ma’lumotlar hamda ularning tahlili va bobga doir xulosalar keltirilgan.

1-jadval

“Omad” navining barglaridagi umumiy suv miqdori, % (2020-2022-yy)

№	Tajriba variantlari	Chinbarg	Shonalash	Gullash	Ko‘saklash	Pishish
1	Nazorat varianti	76,2	75,0	82,2	76,5	66,1
2	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.02%}	71,3	72,0	78,4	71,4	59,9
3	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.05%}	72,4	74,1	79,6	72,2	62,0
4	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn _{0.02%}	71,5	72,7	77,7	71,3	60,8
5	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn _{0.05%}	70,4	71,2	76,2	70,1	59,2
6	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit +nanoserebro	69,9	70,7	75,8	69,8	58,9
7	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +PMK XZ-Co ²⁺	71,9	70,9	77,9	72,1	61,0
8	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit	72,5	71,4	78,3	73,0	60,3
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.02%}	71,7	72,2	79,2	72,1	60,4
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.05%}	72,7	74,9	80,3	72,9	62,7
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn _{0.02%}	71,7	73,5	78,4	72,1	64,3
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn _{0.05%}	71,4	72,0	76,6	71,2	63,2
13	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit +nanoserebro	70,6	71,7	75,3	70,4	59,6
14	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +PMK XZ-Co ²⁺	72,5	71,9	78,6	72,6	61,8
15	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit	72,1	72,0	78,8	73,4	60,7

Olib borilgan tajriba ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, "Omad" navining chinbarglik fazasida nazorat variantidagi o'simliklarimizda umumiy suv miqdori 76,2 % ni tashkil etdi

"Sulton" navining barglaridagi suv miqdori "Omad" navining barglaridagi suv miqдорiga nisbatan biroz kamroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bu navda ham eng ko'p suv miqdori barcha fazalarda nazorat variantimizdagi o'simliklarda kuzatilgan bo'lsa, barglardagi suv miqdori eng kam rivojlanishning keyingi fazalarida N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ kg/ga qo'llanilgan variantlarda bo'lishi aniqlandi (1-jadval). O'simliklarimizda gullash fazasida eng yuqori suv miqдорiga ega bo'ldi. Pishish fazasiga kelib bu ko'rsatkich keskin kamayganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan "Omad" va "Sulton" navlari barglarining suvni saqlash xususiyati har xil bo'lishi kuzatildi. Ko'saklash fazasida har ikkala navda ham suv miqдорining kamayishi kuzatilib, mos ravishda 35,4; 34,1% ni tashkil etganligi aniqlandi. Pishish fazasiga kelib har ikkala navda ham suv saqlash xususiyatining keskin kamayganligi kuzatildi.

O'simliklarimizda chinbarg, shonalash, gullash fazalarida eng yuqori suv saqlash xususiyatiga ega bo'ldi. Ko'saklash va pishish fazasiga kelib bu ko'rsatkich keskin kamayganligi kuzatildi (2-jadval).

Chinbarglik fazasida "Omad" navining nazorat variantidagi o'simliklarimizda suv tanqisligi 32,79 % ni tashkil etdi. "Sulton" navida esa 31,68 % ni tashkil qildi. O'g'itlar me'yorining oshishi o'simliklarimiz suv taqchilligining oshishiga olib kelmadi.

2-jadval

"Omad" navining barglaridagi suvni saqlash xususiyati, % (2 soat davomida sarflangan suv miqdori)

№	Tajriba variantlari	Chin barg	Shonalash	Gullash	Ko'saklash	Pishish
1	Nazorat varianti	35,4	31,3	29,2	25,8	23,5
2	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.05%}	33,8	30,5	28,1	24,3	22,1
3	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.02%}	34,4	30,9	28,3	25,0	22,4
4	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn _{0.05%}	34,2	29,8	27,7	24,4	21,7
5	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn _{0.02%}	33,3	29,0	27,4	24,0	21,4
6	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit+nanoserebro	33,5	29,7	28,2	25,3	22,8
7	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +PMK XZ-Co ²⁺	32,7	29,2	26,9	24,3	21,4
8	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit	33,0	29,5	27,3	24,6	22,4
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.05%}	33,1	28,4	26,5	24,1	21,7
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.02%}	33,5	28,8	26,9	24,4	21,4
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn _{0.05%}	32,9	28,4	26,6	23,7	21,4
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn _{0.02%}	32,7	28,1	26,2	23,3	20,9
13	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit+nanoserebro	33,1	29,2	27,9	25,0	22,4
14	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +PMK XZ-Co ²⁺	31,8	28,7	26,7	24,1	21,9
15	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit	32,5	29,6	27,0	24,4	22,1


Shonalash fazasida o‘simliklarimizda suv taqchilligining biroz ortganligi kuzatilib, nazorat variantimizdagi o‘simliklarimizdagi bu ko‘rsatkich 30,90; 30,21% ga teng ekanligi aniqlandi. N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ o‘g‘itlar bilan ishlov berilgan qolgan variantlarda o‘simliklarimizdagi suv taqchilligi mos ravishda 32,06; 32,70; 31,85; 31,24; 30,90; 31,91; 33,09% ga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. O‘simliklarimizda shonalash fazasida eng yuqori suv taqchilligiga ega bo‘ldi. Ko‘saklash va pishish fazasiga kelib bu ko‘rsatkich keskin kamayishi kuzatildi (3-jadval).

3-jadval

“Omad” navining barglaridagi suv taqchillik, % (2 soat davomida qabul qilingan suv miqdori)

No	Tajriba variantlari	Chinbarg	Shonalash	Gullash	Ko‘saklash	Pishish
1	Nazorat varianti	32,79	35,38	33,89	31,27	28,94
2	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.02%}	29,88	32,06	31,67	28,86	26,92
3	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.05%}	30,27	32,70	32,18	29,18	27,54
4	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn _{0.02%}	29,56	31,85	31,69	28,56	27,09
5	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn _{0.05%}	29,25	31,24	31,51	28,27	26,64
6	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit+nanoserebro	31,79	30,90	32,77	28,11	26,42
7	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +PMK XZ-Co ²⁺	29,67	31,91	31,54	28,06	26,13
8	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit	30,34	33,09	31,95	29,22	27,13
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.02%}	30,09	32,21	31,92	29,35	27,64
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.05%}	30,82	33,72	32,44	29,53	28,17
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn _{0.02%}	29,81	32,33	32,14	29,26	27,73
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn _{0.05%}	29,62	30,34	31,92	28,91	26,96
13	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit+nanoserebro	29,13	30,21	31,66	28,38	26,67
14	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +PMK XZ-Co ²⁺	29,91	32,17	31,79	28,74	27,32
15	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit	30,72	33,56	32,37	29,57	27,49

“Omad” va “Sulton” navlarining hosildorligiga mikroelementlarning ta’sirini aniqlaganimizda “Omad” navining nazorat variantida hosildorlik 21,8 senterni tashkil etgan bo‘lsa “Sulton” navida esa 17,2 sentnerga teng bo‘ldi. Eng yuqori hosildorlik N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅+kuprumxit variantimizda kuzatilib navlarga mos holda hosildorlik 45,8; 43,5 senterni tashkil etdi (7-rasm). N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ variantlarda eng yuqori hosildorlik ko‘rsatkichi kuprumxit+nanoserebro variantimizda kuzatilib umumiy hosildorlik navlarning biologik ko‘rsatkichlariga mos ravishda 43,5; 41,1 s/ga teng bo‘lib, “Omad” navi “Sulton” navidan 2,4 sentnerga ziyod hosildorlikka erishildi.



7-rasm. “Omad” va “Sulton” navlarining hosildorligiga mikroelementlar ta’siri. (2020-2022-yy) s/ga.

O‘g‘itlar me’yorining oshishi o‘simliklarimiz hosildorligining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Chigitning biokimyoviy tarkibini tahlil qilganimizda “Omad” navining nazorat variantida namlik va uchuvchi moddalar miqdori 6,37% ni, mikroelementlar qo‘llanilgan tajriba variantlarida 7,14% dan 7,48% gacha bo‘lish kuzatildi. Yog‘ miqdorini namlikni hisobga olgan holda aniqlaganimizda nazorat variantida 20,11% ni tashkil etdi. Qolgan variantlarda 21,33% dan 24,45% gachani tashkil etdi (4-jadval).

Quruq moddalardagi yog‘ miqdori nazorat variantimizda 21,02% ni tashkil etgan bo‘lsa, N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ miqdorda ishlov berilgan variantlarimizda quruq moddalardagi yog‘ miqdori 21,56% dan 24,84% gachani tashkil etdi. Yog‘ kislota sonini aniqlaganimizda nazorat variantimizda 3,78 mg/g ga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. Tajriba variantlarimizda yog‘ kislota soni 4,16 mg/g dan 4,91 mg/g gacha bo‘lishi aniqlandi. Yod sonini aniqlaganimizda nazorat variantimizda 104,32% ga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mineral o‘g‘itlar va mikroelementlar bilan ishlov berilgan variantlarimizda yod soni 106,19% dan 117,23% gacha bo‘lishi aniqlandi. Yog‘dagi karotinoidlar miqdorini aniqlaganimizda nazorat variantimizda 24,56% ga teng ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, NPK va mikroelementlar bilan ishlov berilgan variantlarimizda yod soni 27,39% dan 40,1% gacha bo‘lishi aniqlandi.

“Sulton” navining chigitlarining biokimyoviy tarkibini tahlil qilganimizda namlik va uchuvchi moddalar miqdori nazorat variantida 6,12% ni tashkil etdi. Mikroelementlar bilan ishlov berilgan variantlarda esa 6,63% dan 7,38% gacha bo‘lishi kuzatildi. Yog‘ miqdorini namlikni hisobga olgan holda aniqlaganimizda nazorat variantimizdagi o‘simliklarda 19,91% ga teng bo‘lgan bo‘lsa, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilgan variantlarda 21,01% dan 24,26% gacha bo‘lishi aniqlandi.

Quruq moddalardagi yog' miqdorini aniqlaganimizda bu ko'rsatkich nazorat variantimizda 20,81% ni tashkil etgan bo'lsa, mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda 20,96% dan 26,42 % ni tashkil etdi. "Sulton" navining yog' kislotalar

4-jadval.

Chigitning biokimyoviy tarkibi

No	Tajriba variantlari	Namlik va uchuvchi moddalar, %	Yog' miqdori, namlikni hisobga olgan holda, %	Quruq Moddalardagi yog' miqdori, %	Yog' kislota soni, mg KOH/g	Yod soni, % J2	Yog'dagi karatinoidlar, mg %
1	Nazorat varianti	6,12	19,91	20,81	3,56	102,11	22,34
2	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.05} %	6,44	21,12	21,34	3,94	104,14	25,17
3	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +B _{0.02} %	6,58	21,82	22,16	4,23	107,16	29,23
4	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn 0.05%	6,49	21,01	21,25	4,05	105,76	27,74
5	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +Zn 0.02%	6,41	20,63	20,96	3,90	103,98	24,00
6	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit+nan oserebro	6,86	23,00	24,62	4,56	109,02	36,01
7	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +PMK XZ-Co ²⁺	6,63	21,16	23,42	4,17	107,71	30,42
8	N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ +kuprumxit	6,72	21,91	23,61	4,31	108,73	32,15
9	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.05} %	6,90	21,71	22,03	4,12	106,04	27,21
10	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +B _{0.02} %	7,02	22,44	22,91	4,38	109,22	32,63
11	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn 0.05%	6,88	21,52	22,00	4,16	107,65	30,04
12	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +Zn 0.02%	6,77	21,00	21,54	4,02	105,03	28,06
13	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit+nan oserebro	7,38	24,26	26,42	4,70	115,11	38,88
14	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +PMK XZ-Co ²⁺	7,09	22,96	24,21	4,35	111,14	34,41
15	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +kuprumxit	7,22	23,41	25,06	4,46	113,02	36,22

sonini aniqlaganimizda nazorat variantimizdagi o'simliklarda 3,56 mg/g ni tashkil etgan bo'lsa, ma'danli o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda esa 3,90 mg/g dan 4,70 mg/g ni tashkil etdi. Yod soni esa "Sulton" navining nazorat variantidagi o'simliklarda o'rtacha 102,11% ni tashkil etdi. Mineral o'g'itlar berilgan variantlarda esa 103,98% dan 115,11% ni tashkil etdi. Yog'dagi karatinoidlar miqdori esa "Sulton" navining nazorat variantida 22,34 mg/% ni tashkil etgan bo'lsa, NPK qo'llanilgan variantlarda 24,00 mg/% dan 38,88 mg/% ni tashkil etdi.

XULOSALAR

"G'o'zaning ayrim fiziologik va biokimyoviy xususiyatlariga (B, Zn) mikroelementlarning ta'siri" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. G'o'za chigitlarining unuvchanligiga mikroelementlar ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi. Ya'ni, "Omad" g'o'za navining unish quvvati 2,3% dan 8,2% gacha, laboratoriya unuvchanligi 0,1% dan 4,7% gacha, dala unuvchanligi 13,6% dan

18,0% gacha, “Sulton” g‘o‘za navida esa mos ravishda 3,9% dan 8,2% gacha, 2,5% dan 7,7% gacha, 15,6% dan 20,1% gacha mikroelementlar ta’sirida ortganligi aniqlandi.

2. “Omad” va “Sulton” g‘o‘za navlarining fotosintetik jarayoni: (barg sathi 4815,6; 4566,2 sm²/tupni, quruq modda 147,80; 149,32 g/tup, barglardagi pigmentlar miqdori 7,19-7,89 mg/g va fotosintezning sof mahsuldorligi 10,9-10,5 g/m².sutka) mikroelementlar me’yoriga bog‘liq bo‘lib, g‘o‘za navlariga ma’danli o‘g‘itlar N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga va mikroelementlar bilan birgalikda qo‘llanilganda, fotosintetik ko‘rsatkichlar me’yorida bo‘lishi kuzatildi.

3. Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilayotgan , “Omad” va “Sulton” go‘za navlarining suv almashinuv xususiyatlari (barglaridagi suv miqdori 75,8; 73,2%, suv saqlash xususiyatlari 28,2; 27,3%, suv tanqisligi 31,51; 29,91%) N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga qo‘llanilib, mikroelementlar bilan qo‘shimcha oziqlantirilganda nisbatan qurg‘oqchilikka chidamliligi ortganligi aniqlandi.

4. Samarqand viloyati sharoitida g‘o‘zaga makro o‘g‘itlar bilan mikroelementlar birgalikda qo‘llanilganda, o‘simliklarning o‘shiga ijobiy ta’sir qilishi aniqlandi. O‘simliklarning balandligi “Omad” navida 68,6 sm dan 91,7 sm gacha, “Sulton” navida 72, 6 sm dan 95,5 sm gacha, ko‘saklar soni 9,4 ta dan 16,4 ta gacha, 8,2 ta dan 15,3 ta gacha bo‘lishi kuzatildi.

5. G‘o‘za navlariga makro (N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀) va mikro o‘g‘itlar bilan me’yorida oziqlantirilganda gektaridan “Omad” navida 43,5 (qo‘shimcha 21,7) s/ga; “Sulton” navida 41,1 (qo‘shimcha 23,9) s/ga hosil olishga erishildi.

6. “Omad” g‘o‘za navining chigitidagi yog‘ miqdori 26,91% dan 34,26% gacha, “Sulton” navida esa 24,82% dan 33,03% gacha mikroelementlar ta’sirida ortganligi aniqlandi.

7. O‘simliklarning mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘suvi davrida purkab berish orqali qondirish mumkin. Bor mikroelementining 0,02% li (H₃BO₃) eritmasini, ruh mikroelementini 0,05% (ZnSO₄) eritmasini va kuprumxit+nanoserebro (1,2 kg/ga) eritmalarini chinbarg, shonalash va gullash fazalarida kechki vaqtlarda purkash yuqori samara berishi ilmiy asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

ТУРСУНОВ АНВАР ИСМОИЛОВИЧ

**ВЛИЯНИЕ МИКРОЭЛЕМЕНТОВ (B, Zn) НА НЕКОТОРЫЕ
ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ И БИОХМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА
ХЛОПЧАТНИКА**

03.00.07 – Физиология и биохимия растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/B926.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Уроков Сирожиддин Худайбердиевич
доктор биологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Холлиев Аскар Эргашович
доктор биологических наук, профессор

Абдурахмонов Хусниддин Эшмаматович
кандидат сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «06» декабрь 2024 года в «14:00» часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал Института биохимии Самаркандского государственного университета. Тел: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-51; E-mail: devonxona@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован за № 126). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Центр информационных ресурсов. Тел: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «20» ноябрь 2024 года
(Протокол реестра рассылки № 15 от «15» ноябрь 2024 года)



Т.Ф.Ражабов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней, д.б.н.

М.С.Кузиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней
(PhD), доцент

Х.К.Хайдаров
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире хлопчатник считается одним из культурных растений, выращиваемых как продовольственная культура. Спрос на сельскохозяйственную продукцию в мире увеличивается с каждым днем, кроме того, основной задачей является дальнейшее укрепление продовольственной безопасности страны, расширение производства экологически чистой продукции. В связи с этим недостаток микроэлементов, наблюдаемый в растениях, в том числе отрицательно воздействует и на хлопчатник. В результате снижаются продуктивные показатели хлопчатника, урожай и его качество. Исходя из этого, углубление научно-исследовательских работ, направленных, на снижение воздействия нехватки микроэлементов в хлопчатнике, а также разработка мер по сохранению урожая, оценка и обоснование физиологических аспектов микроэлементов рассматриваются как важнейшие задачи проводимых в этом направлении исследований.

В мире одной из актуальных теоретическо-научных проблем является изучение и обоснование влияния недостатка микроэлементов на продуктивность, биохимический состав хлопчатника, а также проведение научных физиологических и биохимических исследований с использованием современных методов. В этой связи, большое внимание уделяется определению и дополнению недостатка микроэлементов в хлопчатнике, оценке на основе их физиологической и биохимической совместимости, на основе определения их физиологической устойчивости к различным стрессовым воздействиям изучению механизмов и физиологических основ применения наномикроудобрений, выявлению физиологических и биохимических свойств растения, определению норм и механизму их применения.

В нашей Республике достигаются определенные результаты по развитию многих отраслей сельского хозяйства, в том числе и выращиванию хлопчатника, высокой урожайности, конкуренто-способности, качеству волокна, отвечающего требованиям мирового рынка, и увеличению производства масла. В частности, достигнуты важные результаты по развитию физиологических и биохимических особенностей хлопчатника, применению микроэлементов и микроудобрений. В Стратегии развития Нового Узбекистана¹ определены важные задачи «повышению плодородия почв, улучшение мелиоративного состояния хлопковых площадей». В настоящее время на территории нашей республики в результате недостаточного внесения органических удобрений на посевные площади хлопчатника наблюдается дефицит микроэлементов в растениях и климатических особенностей, что приводит к замедлению физиологических процессов в растениях и снижению их урожайности.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

